

O'ZBEK TILI IZOHLI LUG'ATLARIDA SEMANTIK DARAJALANISH TATBIQI HOLATI

Qahramon Eshboev,

Renessans ta'lif universiteti dotsenti

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

THE APPLICATION OF SEMANTIC GRADATION IN UZBEK LANGUAGE EXPLANATORY DICTIONARIES

*Kahramon Eshboev, associate professor of Renaissance
Educational University.*

Doctor of Philosophy in Philology (PhD), dotsent

СОСТОЯНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ

СЕМАНТИЧЕСКОГО УРОВНЯ В УЗБЕКСКИХ ТОЛКОВЫХ СЛОВАРЯХ

*Кахрамон Эшбоев, доцент Образовательного университета
«Ренессанс», Доктор философии в филологии (PhD)*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek tili izohli lug'atlarida berilgan leksemalarning ma'noviy darajalanish tatbiqi holati tadqiq qilingan. Bu orqali izohli lug'atlarda darajalanish tamoyilini qo'llash bo'yicha fikr va mulohazalar bayon qilingan.

Kalit so'zlar: tilshunoslik, leksikografiya, lug'at, metodologiya, semantika, daraja, darajalanish, izohli lug'at, sinonimlar lug'ati, antonimlar lug'ati.

Annotation: This article investigates the application of the semantic categorization of lexemes provided in Uzbek explanatory dictionaries. It presents opinions and reflections on the application of the principle of categorization in explanatory dictionaries.

Key words: linguistics, lexicography, dictionary, methodology, semantics, degree, gradation, explanatory dictionary, synonyms dictionary, antonyms dictionary.

Аннотация: В этой статье исследуется состояние применения семантической градации лексем, представленных в объяснительных словарях узбекского языка. Через это изложены мысли и соображения относительно применения принципа градации в объяснительных словарях.

Ключевые слова: лингвистика, лексикография, словарь, методология, семантика, степень, градация, толковый словарь, словарь синонимов, словарь антонимов.

Kirish. Lug'atlarning yaratilishi uzoq tarixga borib taqaladi. Turkiy tillarning dastlabki lug'atlari XI-XII asrlarda yaratilgan bo'lsa, Yevropada, xususan, Rossiyada lug'at tuzish ishlari XVII asrdan boshlab ommalasha boshlagan. O'zbek leksikografiyasining tarixi Mahmud Koshg'ariyning XI asrda yaratilgan mashhur "Devonu lug'ot-it turk" asari bilan boshlangan. Ushbu lug'at faqat so'z va uning ma'nosini tavsiflab qolmasdan, turkiy xalqlar tarixi, urf-odatlari, geografik joylashuvi kabi keng ma'lumotlarni ham qamrab olgan. Shu bilan birga, u dastlabki ikki tilli (turkiycha-arabcha) izohli

lug'atlardandir. Yana bir yurtdoshimiz Mahmud Zamaxshariy o'zining "Asos ul-balobg'a" asari va "Muqaddimat ul-adab" (XI asr) deb nomlangan to'rt tilli (arab, fors, o'zbek, mo'g'ul) lug'ati bilan ham amaliy, ham nazariy leksikografiya rivojiga katta hissa qo'shdi.

O'zbek leksikografiyasi tarixida XX asr alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu davrda turli maqsadlarni ko'zlab bir qancha terminologiyaga oid lug'atlar, o'quv va imlo lug'atlari, ikki va uch tilli lug'atlar yaratildi. Avvalo sho'rolar davrida jadidlarimiz ikki tilli ruscha-o'zbekcha lug'atlar



<https://orcid.org/0000-0001-5038-7520>

e-mail:

eshboev2020@gmail.com

yaratildi. Chunki o‘zbek tili XX asrning ikkinchi yarmida, xususan, keyingi o‘n yilda yangi-yangi so‘zlar, so‘z shakllari va ifoda vositalari bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o‘zgardi. Unda yangi me’yor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, o‘zbek tili leksikasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. O‘zbekistonda sanoat, qishloq xo‘jaligi, fan, texnika va madaniyatning beqiyos taraqqiyoti, mamlakatimizda yangi iqtisodiy islohotlar hamda bozor munosabatlarining rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘zbek tili lug‘at tarkibida juda ko‘p yangi so‘zlar va terminlar yuzaga keldi. Ko‘pgina so‘zlarning ma’nosi o‘zgardi, kengaydi, ayrim so‘zlarning ma’nosi yanada aniqlashdi, o‘zaro farqlandi[1].

Semantik darajalanish tilshunoslikda leksik birliklarning ma’nodagi nozik farqlari, ularning kuchayishi yoki susayishi orqali aniqlanadigan daraja farqlarini anglatadi. Bu hodisa so‘zlarning ma’nolarini chuqurroq anglash, sinonimik qatorlar tarkibini aniqlash va ularni uslubiy jihatdan to‘g‘ri qo‘llashda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbek tili izohli lug‘atlarida ushbu darajalanishning qanday tatbiq etilgani tahlil etilishi leksikografik jarayonlarning chuqurroq tushunilishini ta’minlaydi.

O‘zbek tili izohli lug‘atida darajalanish tamoyili lug‘atdagi so‘zlarning ma’nolarini va ularning o‘zaro aloqalarini tizimli va izchil tarzda ko‘rsatishni nazarda tutadigan tamoyildir. Izohli lug‘atda so‘zlar faqatgina talaffuzi va grammatik shakllariga asoslanib emas, balki ularning semantik ma’nolari, kontekstdagi ishlatalishi, sinonimlari, antonimlari va boshqa aloqalari bo‘yicha ham tasniflandi.

Darajalanish tamoyili lug‘atdagi so‘zlarni turli darajalarda, ya’ni fonologik, morfologik, sintaktik, semantik va pragmatik jihatlarni hisobga olgan holda tizimlashtirishni ta’minlaydi. Bu tamoyil so‘zlarning o‘zaro bog‘lanishlarini va ularning qaysi kontekstdan foydalanimishini ko‘rsatish orqali lug‘atni yanada foydali va tushunarli qiladi.

O‘zbek tili izohli lug‘atlarida semantik darajalanish tamoyilining tatbiqi, so‘zlarning ma’nolaridagi farq va darajalarini tizimli tarzda ifodalashni anglatadi. Bu tamoyil lug‘atlarda so‘zlarning ma’nojihatidan qanday darajalarga bo‘linishi, biror sifatning kuchi yoki intensivligi qanday ta’riflanishi kerakligini ko‘rsatadi. Semantik darajalanish, ayniqsa sifatlar va holatlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlar uchun o‘ta muhimdir, chunki bu so‘zlar bir xil tushunchani turli darajalarda ifodalashlari mumkin.

Semantik darajalanish so‘z ma’nolarining iyerarxik tartibda, ya’ni asosiy va qo‘sishimcha, umumiy va xususiy, yuqori va pastki ma’no darajalariga bo‘lingan holda ko‘rsatilishi.

O‘zbek tili izohli lug‘atlarida semantik darajalanishning amaliy ko‘rinishini quyidagicha tavsiflash mumkin:

a) Ma’no turlari iyerarxiysi. Asosiy ma’no doimo birinchi o‘rinda keladi. Keyingi ma’nolar ikkinchi darajali, ko‘chma, majoziy, terminologik va h.k. Bu fikrlarimizni O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘atida [2] berilgan “og‘ir” leksemasining sinonimik qatori orqali dalillashga harakat qilamiz.

b) Giperonim-giponim iyerarxiysi So‘zlar umumiy va xususiy ma’nolarda ifodalanganda ular semantik darajalanishni tashkil etishi kerak. “Meva” giperonim “olma”, “anor” giponimlar. Lug‘atda “meva”ning izohida unga kiruvchi turlar ko‘rsatilsa, bu ma’no darajasini belgilaydi.

v) Sinonim va antonim so‘zlar orqali semantik yaqinlik darajasi. Masalan, sinonimlar ichida ham ma’nolar darajalangan bo‘lishi mumkin: go‘zal, chirolyi, jozibali.

Sinonimlar lug‘atida [2] berilgan ayrim sinonimik qatordagi leksemalarning ma’no darajasini solishtirib chiqamiz:

ALJIMOQ, ALJIRAMOQ, VALDIRAMOQ, VALAQLAMOQ, VAQILLAMOQ, LAQILLAMOQ, VAYSAMOQ, SANNAMOQ. Be’mani, bo‘lmag‘ur gap aytmoq, o‘rinli-o‘rinsiz, mantiqli-mantiqsiz, keragidan ortiq gapirmoq. **Aljimoqda**, qo‘pol, haqoratli so‘zlar ham ishlataladi. **Aljiramoq** bu ma’noni **aljimoqqa** nisbatan kuchliroq ifodalaydi. **Valdiramoq, sannamoqda** bunday so‘zlarning bo‘lishi shart emas. **Valaqlamoq, vaqillamoq, laqillamoq** so‘zlarida boshqalariga nisbatan belgining darajasi kuchli. **Sannamoq** va **vaysamoq** so‘zlarida gapirish harakatining keraksiz davomiyligi, ayni paytda, gapdagi fikrning mantiqan raso emasligi va ovozning balandligi qabariq ifodalananadi. **Valdiramoq, vaysamoq, sannamoq** so‘zlar ko‘proq oddiy nutqqa xos.

Endi ushbu leksemalarning O‘TIL dagi [3] izohi bilan tanishib chiqamiz:

ALJIMOQ 1 Bo‘lmag‘ur, bema’ni gap qilmoq, maza-bemaza, tuturiqsiz gaplar gapirmoq; valdiramoq, aynimoq. *Mening ochiq ko‘ngillilik qilib aljiyot- ganim uchun kechir.* [Shuhrat, Shinelli yillar].

2 Gap-so‘zdan yanglishmoq, boshi gangib, mi-

yasi aynib, og‘ziga kelganini gapirmoq. -Ah, nima? .. *Bilishibdimi?* — dedi u [Olaxo ja.] va o‘z peshonasiga o‘zi qattiq bir mushtladi-da, yana so‘ra-di: *Nima balo, mastlik qilib aljib qo‘ydingmi?* A! [P.Tursun, O‘qituvchi].

ALJIRAMOQ ayn. **aljimoq.** *Besh-olti qadam narida kayf bilan aljirayotgan yigitlaming biri kelib, unga tegajaklik qildi.* S.Zunnunova, Ko‘k chiroqlar. *Erining poyma-poy aljirashidan ko‘ra tinmay hiqichoq tutib hiqillashi uning g‘ashiga tegmoqda edi.* S.Abduqahhor, Sanamay sakkiz dema.

VALDIRAMOQ s.t. Bo‘lar-bo‘lmas, nota-yin gaplami gapirmoq, og‘ziga kelganini so‘zlamоq. Tojiboy yana nimalardir valdiradi. Elmurod qulоq solmadi. [B.Tursun, O‘qituvchi].

VALAQLAMOQ To‘g‘ri kelgan mavzuda bo‘lar-bo‘lmas, huda-behuda gaplami gapirmoq. Nimaga bularni ishdan qoldirib, valaqlab o‘tirbsan? [M.Hazratqulov, Jur’at].

VAQILLAMOQ 1 “Vaq-vaq” degan tovush chiqarmоq (qurbaqa haqida). Hovuzda qurbaqa vaqillaydi, nodon - davrada. [Maqol].

2 ko‘chma *Bo‘lar-bo‘lmas, bema‘ni gaplar gapirmoq; valaqlamoq. Ko‘p vaqillayverma!* Ko‘rib turibsan-ku, bola esini tanib olsin-chi... [B.Rahmonov, Yurak sirlari].

3 “Vaq-vuq” va shunga yaqin tovush chiqarmоq (oqayotgan yoki qaynayotgan suv haqida). *Gulxanning oldida qora qumg‘onlar vaqillab qaynamoqda.* [M.Muhammadjonov, Turmush urinishlari].

LAQILLAMOQ 1 Vaqtни bekorga o‘tkazmoq, sandiroqlamoq. *Kattaroq* ish topolmay, ikkiyil ishsiz laqillab yurganidan xabari yo‘q.

[S.Anorboyev, Oqsoy]. 2 Aldanib ishonmoq. *O‘sanning gapiga laqillab yuribsamni?!*

3 Bo‘lar-bo‘lmas gaplami qilmoq, lozim bo‘lмаган gaplami gapirmoq. *Bu yigit choyxonada nima deb laqilladi?* [X.To‘xtaboyev, Sariq devni minib].

VAYSAMOQ E’tiborga loyiq bo‘lмаган, keraksiz, bema‘ni gaplarni gapirmoq. *Yuz-ko‘zini soqol bosgan mulozim eshkak eshar ekan, tinmay vaysardi.* [M.Osim, Karvon yo‘llarida].

SANNAMOQ 1 etn. Ins-jinslami qaytarish, kishilarni davolash uchun duo o‘qimoq. *Folbinning “odamlari” eshikni g‘irch etib ochib kelib, taxmon tepasidagi dorga o‘tirishini, sannab o‘qib turgan azayimxonni bo‘g‘ishini ko‘rgan edi.* [Mirmuhsin, Umid].

2 etn. Azada marhum haqida aytib yig‘lamoq. *Ayol hamon o‘z dardini aytib sannardi.* [“Sharq yulduzi”].

3 Ko‘chma. Ko‘p gapirmoq, vaysamoq. *Qorinni to‘qlab olgan emasmi, Asad jag‘iga zo‘r berib sannab ketdi.* [H.Nazir, Ko‘kterak shabadasi]. Keltirilgan izohlardan ko‘rinadiki, ushbu sinonimik qatordagi so‘zlar orasida ma’noviy darajalanish holati kuchli bo‘lmasa ham, qo‘llanilish holatlarida farqlar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Sinonimlar lug‘ati asosida darajalanish: O‘zbek tilida yaratilgan sinonimik lug‘atlar semantik darajalanishni belgilashda muhim manbadir. Masa-lan, quyidagi sinonimlar qatori daraja jihatidan farq-lanadi: *g‘azablanmoq, jahllanmoq, achchiqlanmoq, qahrlanmoq, g‘azabga minmoq, qahr qilmoq, qahri kelmoq, achchiq qilmoq, achchig‘i kelmoq, achchig‘i chiqmoq, achchig‘i qistamoq.* Bu qatorda har bir keyingi ibora oldingisiga nisbatan kuchliroq hissiy portlashni bildiradi.

Xulosa. O‘zbek tilidagi mavjud izohli lug‘atlar semantik darajalanishni yoritishda so‘zlarining bir nechta ma’nolarini tasvirlaydi, bu esa so‘zlarining o‘zgaruvchi va boy ma’no qatlamlarini ko‘rsatadi. So‘zlar ko‘plab matnlarda o‘zining boshlang‘ich ma’no doirasidan chiqib, turli metaforik va frazeologik ma’nolarga ega bo‘ladi. Bunday semantik qatlamlar tilning boyligini va so‘z-lar orasidagi nozik farqlarni chuqurroq tushunishda lug‘at foydalanuvchisiga qulayliklar tug‘diradi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda aytish mumkin-ki, keyingi yillarda o‘zbek tilshunosligida so‘zlararo ma’noviy munosabatlarning yana bir turi bo‘lgan graduonimiya munosabati bilan bog‘liq yondashuv va qarashlarning ommalashayotganligi o‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi oldiga muhim vazifalarni hal etishni dolzarb qilib qo‘ymoqda.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Эшбоев К. Б. Сўзлараро даражаланиш ўкув луғатини тузиш асослари. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Андижон, 2022. – 134 б.

2. O‘zbek tili sinonimlarining katta izohli lug‘ati. 2 jildli. 1-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. Toshkent, 2022. – 502 b.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 6 jildli. 6-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. – Toshkent, 2022. – B 182.